

“TASDIQLAYMAN”



O‘zbekiston Respublikasi
Energetika vaziri

J. Mirzamahmudov

2024-yil 19 08

**O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi Qayta tiklanuvchi energiya manbalari,
energiya samaradorligi va energiya auditi boshqarmasida mavjud vakant lavozimga
ishga qabul qilish bo‘yicha tanlov komissiyasining
37 -son bayoni**

2024-yil 19 08

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: J. Mirzamahmudov – Energetika vaziri, Tanlov komissiyasi raisi

Qatnashganlar: Vazir o‘rinbosarlari, vazirning rejim va komplayens bo‘yicha maslahatchisi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi vakili, Tanlov komissiyasi a‘zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI:

**O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi Qayta tiklanuvchi energiya manbalari,
energiya samaradorligi va energiya auditi boshqarmasida mavjud vakant lavozim
uchun e‘lon qilingan tanlovning suhbat bosqichini o‘tkazish to‘g‘risida**

(Mirzamahmudov, Mamatkarimov, Shukurov, Fayziyev, Mirzamahmudov)

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) bilan kelishgan holda tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi markaziy apparati va tashkiliy tuzilmasidagi tashkilotlarda mavjud vakant lavozimlariga ishga qabul qilish bo‘yicha tanlov o‘tkazish tartibi” (keyingi o‘rinlarda - Tartib) talablariga muvofiq vazirlik **Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi va energiya auditi boshqarmasi bosh mutaxassisi** vakant lavozimiga ishga qabul qilish uchun Agentlikning <https://vacancy.argos.uz/> platformasi orqali e‘lon qilingan tanlovda 94 ta murojaat kelib tushgan.

Tanlovning 1-bosqichi bo‘yicha nomzodlarning o‘rnatilgan malaka talablariga mosligi tekshirildi, shundan so‘ng, muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar tomonidan tanlovning 2-bosqichida Agentlikda test sinovlari topshirildi.

Tanlovning test sinovlari bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tgan 7 (yetti) nafar nomzod (A.Ismatov, M.Xayitbayeva, A.Imyaminov, O.Islomov, B.Mirzayev, D.Baxodirov, AYakubov) tanlovning suhbat bosqichiga taklif qilindi.

Tanlovning suhbat bosqichi Energetika vazirligi binosida ochiq muloqot shaklida bo'lib o'tdi.

Suhbat bosqichida Tanlov komissiyasi a'zolari tomonidan nomzodlarga tanlagan vakant lavozimi faoliyati bilan bog'liq savollar berildi. Shundan so'ng nomzodning javoblari o'rnatilgan tartibda muhokama qilinib, bilim saviyasi, vakant lavozimga mosligi, strategik fikrlashi va umumiy dunyoqarashi baholandi.

Komissiya a'zolari tomonidan mazkur vakant lavozim uchun nomzod, tegishli tashkilotlar bilan kelishilishi lozimligini inobatga olib, vazirlik markaziy apparati **Elektr tarmoqlarini rivojlantirish bo'limi yetakchi mutaxassisi** vakant lavozimiga ishga qabul qilish tavsiya etildi.

Komissiya a'zolarining tavsiyalarini ko'rib chiqib va takliflarini inobatga olib, Tanlov komissiyasi **qaror qiladi**:

1. Vazirlik Elektr tarmoqlarini rivojlantirish bo'limi yetakchi mutaxassisi lavozimiga Behruz Abdulla o'g'li Mirzayev nomzodi ma'qullansin.


2. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (Z.Fayziyev) tanlangan nomzod bilan o'rnatilgan tartibda mehnat munosabatlariga oid hujjatlarni imzolash va lavozimga tayinlash bo'yicha ishlarni amalga oshirsin.

3. Ushbu yig'ilish bayoni ijrosini nazorat qilish vazir maslahatchisi D.Shukurov zimmasiga yuklansin.

 B. Mamatkarimov

 U. Mamadaminov


 D. Shukurov

 A. Raupov

 B. Asadov

 Z. Fayziyev

 F. Sharipov

 R. Xakimov